


**O'zbekiston Respublikasi**  
**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**

**60112400– Professional ta'lim (60810900-Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo'yicha)) bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari**

**Toshkent - 2023**



**ISHLAB CHIQLIGAN:**

- Toshkent davlat agrar universiteti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil « 21 » avgust dagi 367 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		Bet
1.	<i>60112400– Professional ta’lim (60810900–Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo’yicha)) bakalavriat ta’lim yo’nalishining umumiy tavsifi</i> .....	4
1.1.	<i>Qo’llanish sohasi</i> .....	4
1.1.1.	<i>60112400– Professional ta’lim (60810900–Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo’yicha)) ta’lim yo’nalishi malaka talabining qo’llanilishi</i> .....	4
1.1.2.	<i>Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari</i> .....	4
1.2.	<i>60112400– Professional ta’lim (60810900–Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo’yicha)) ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi</i> .....	4
1.2.1.	<i>60112400– Professional ta’lim (60810900–Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo’yicha)) ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari</i> .....	4
1.2.2.	<i>60112400– Professional ta’lim (60810900–Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo’yicha)) ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari</i> .....	4
1.2.3.	<i>60112400– Professional ta’lim (60810900–Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo’yicha)) ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari</i> .....	5
1.2.4.	<i>60112400– Professional ta’lim (60810900–Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo’yicha)) ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari</i> .....	5
2.	<i>60112400– Professional ta’lim (60810900–Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo’yicha)) ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga talablar</i> .....	6
2.1.	<i>Umumiy kompetensiyalar</i> .....	6
2.2.	<i>Kasbiy kompetensiyalar</i> .....	6
2.3.	<i>Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo’yiladigan talablar</i> .....	8
2.3.1.	<i>Kvalifikatsiya</i> .....	8
2.3.2.	<i>60112400–Professional ta’lim (60810900–Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo’yicha)) ta’lim yo’nalishi uchun ajratilgan o’quv fanlari, bloklar bo’yicha soatlar va kreditlar</i> .....	8
2.3.3.	<i>60112400–Professional ta’lim (60810900–Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo’yicha)) bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha ta’lim dasturining tuzilishi</i> .....	8
	<i>Bibliografik ma’lumotlar</i> .....	10
	<i>Kelishuv varag’i</i> .....	11

**1. 60112400– Professional ta’lim (60810900–Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo’yicha)) bakalavriat ta’lim yo’nalishining umumiy tavsifi**

**60112401– Professional ta’lim (60810900–Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo’yicha))** ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va kechki ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo’yicha o’qitish kredit-modul tizimi shakllarida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining o’quv muddati 4 yil.

**1.1. Qo’llanish sohasi**

**1.1.1. 60112400–Professional ta’lim (60810900–Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo’yicha))** ta’lim yo’nalishi malaka talabining qo’llanilishi.

Malaka talabi **60112400– Professional ta’lim (60810900–Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo’yicha))** ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

**1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

– mazkur ta’lim yo’nalish bo’yicha malaka talablari, o’quv reja va o’quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o’quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun ma’sul hamda o’z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o’quv bo’limi boshlig’i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor - o’qituvchilari;

– ta’lim yo’nalishining o’quv reja va fan dasturlarini o’zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;

– bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

– ta’limni boshqarish bo’yicha vakolatli davlat organlari;

– oliy ta’lim tashkilotini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

– oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

– kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

– oliy ta’lim tashkilotlariga o’qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

**1.2. 60112400– Professional ta’lim (60810900–Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo’yicha))** ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi

**1.2.1. 60112400– Professional ta’lim (60810900–Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo’yicha))** ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.

**60112400– Professional ta’lim (60810900–Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo’yicha))** talim yo’nalishi – “Ta’lim” sohasiga oid yo’nalish bo’lib, yer, suv, energetik va moddiy-texnika resurslaridan samarali foydalanishni oshirish hamda ularga doir bilim va ko’nikmalarni ta’lim oluvchilarda shakllantirish maqsadida professional ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyat olib borish, zamonaviy resurstejamkor innovatsion texnologiyalarni qo’llash, qishloq xo’jaligida ishlab chiqarish jarayonlarini maqbullashtirish, qishloq xo’jalik ekinlari hosildorligi va yetishtirilayotgan mahsulot sifatini oshirish, kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya vositalari va zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan samarali foydalanish usul va uslublari yig’indisini o’z ichiga oladi.

**1.2.2. 60112400– Professional ta’lim (60810900–Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo’yicha))** ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

– kasbiy ta’limning didaktikasi;

– kasbiy ta’limning pedagogikasi va tashxis texnologiyasi;

– tizimli yondoshishlikning mexanizmlari;

– ta’limning didaktik vositalari;

- ta'limning elektron vositasi;
- professional ta'lim muassasalari;
- professional ta'lim tizimida faoliyat;
- professional ta'lim o'quvchilarining kasbiy rivoj topishi;
- kasbiy ta'limda tarbiyaviy ishlarni boshqarish va tashkil etish;
- kasbiy o'qitishning nazariyasi, usullari va turlari;
- kasbiy ta'lim jarayonida interfaol usullariga va tamoyillarni tizimlash vositalariga o'rgatish;

- kasbiy ta'lim jarayonida maxsus ta'limni tashkil etish;

- yer, suv, energetik va moddiy-texnika resurslari, dala ekinlari va ularning navlari, urug'lari, mahsulotlari; kimyoviy va biologik vositalar, texnik asbob-uskunalar, qishloq xo'jalik texnikalari, agrotexnik tadbirlar; dehqonchilikda qo'llaniladigan agrotexnik jarayonlar, dala ekinlarini yetishtirish texnologiyasi; qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirish bo'yicha texnologik xaritalarni tuzish; ilmiy-tadqiqot jarayonlari; agrosanoat majmui korxonalari, tashkilotlar, agroklasterialar, kooperatsiyalar, fermer xo'jaliklarining boshqaruv tizimlari va jarayonlari;

**1.2.3. 60112400– Professional ta'lim (60810900-Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo'yicha)) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- tashkiliy-boshqaruv faoliyati.
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyati;
- pedagogik faoliyat (professional ta'lim muassasalarida)
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- loyiha-texnologik faoliyat;

**1.2.4. 60112400– Professional ta'lim (60810900-Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo'yicha)) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.**

60112400– Professional ta'lim (60810900-Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo'yicha)) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

**Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida qo'llanilayotgan zamonaviy agrotexnologiya va texnik vositalardan foydalanishning samaradorligi ko'rsatkichlarini hisoblash va baholash;
- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy va mehnat resurslarini rejalashtirish;
- ishlab chiqarish jarayonini boshqarish;
- boshqaruv qarorini qabul qilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimlaridan foydalangan holda ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va hayotiy faoliyat xavfsizligi, texnika xavfsizligi talablari asosida ishlab chiqarish jarayonlarini monitoringini yuritish;
- kasbiy muammolar yechimini topish;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
- fikrlar xilma-xilligi sharoitida boshqaruv qarorini qabul qilish;
- birlamchi ishlab chiqarish ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

**Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:**

- dala ekinlari yetishtirish va hosilini yig'ishtirishda texnologik kartalardan foydalanish;
- dehqonchilikda yerlarni meliorativ holatini yaxshilash tadbirlarini qo'llash;
- dehqonchilikda samarali va resurs tejamkor faoliyatni tashkil eta olish;

– dala ekinlarini yetishtirish va hosilini yig'ib olish bo'yicha ishlab chiqarish jarayonlari, agrotexnik tadbirlarning bajarilishi sifatini nazorat qilish;

– zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikalari va kommunikatsion vositalarni amaliyotda keng qo'llash;

– ilg'or texnologik jarayonlardan foydalanish;

– ekinlar yetishtirishning ilmiy asoslangan tizimlarni qo'llash va tavsiya qilish;

– yangi samarali texnologiyalarni ishlab chiqish va ulardan oqilona foydalanish;

– tabiiy resurslarni muhofaza qilish va hayot faoliyati xafsizligi qoidalariga rioya qilish;

– xizmat ko'rsatish sohasida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olish;

– qishloq xo'jalik sohasi uchun servis xizmati ko'rsata olish;

**Professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatida:**

– professional ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish;

– o'quv fanlarini o'qitish uslubiyotini egallash;

– zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

– o'quv jarayonlarini tashkil etish va amalga oshirishda ko'maklashish;

– izlanishlarda, materiallarni yig'ishda, umumlashtirish va tahlil qilishda qatnashish;

– o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;

– o'qitilayotgan fan bo'yicha mashg'ulotlarini o'tkazish o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish;

– mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan va hamda pedagogic faoliyat sohasidagi uslublar, vositalar va shakllar tizimida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib boorish;

**Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

– kichik ilmiy xodim va yordamchi lavozimlarida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishi;

– agronomiya sohalari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

– dala tajribalarida variantlar va takrorlanishlarni joylashtirish, kuzatuvlar o'tkazish, ilmiy ish hisoboti uchun ma'lumotlar tayyorlash;

– ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalarni tashkil etishda va hamda ilmiy, tahliliy ommabop nashrlarda maqolalar bilan qatnashish;

– berilgan mavzu bo'yicha axborotlarni to'plash, ishlov berish, tahlil qilish va tizimlashtirishda ishtirok etish;

– qaror qabul qilish, bilimlarni amaliyotda qo'llash, ish samaradorligi va sifatiga javob berish;

– respublika va xorijda dala ekinlarini yetishtirishga oid chop etilgan ilmiy-texnik axborotlar manbalarini o'rganish;

– ilmiy tadqiqot natijalari va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda ishtirok etish;

**Loyiha-texnologik faoliyatida:**

– qishloq xo'jalik ekin maydonlarini tashkil etishni loyihalashtirish uchun zaruriy boshlang'ich materiallar to'plash;

– dala ekinlari yetishtiriladigan yerlardan foydalanish loyihasini ishlab chiqish, biologik materiallarni va zaruriy ishlab chiqarish resurslarini tayyorlash; ekinlarini almashlab ekish sxemalarini tuzish;

– dala ekinlari yetishtirish texnologik kartasining agrotexnika qismini ishlab chiqish;

– ixtisoslikdan kelib chiqqan holda mahsulotlar sifatini baholashda chet el va vatanimizda qo'llanilayotgan usullarni amalda qo'llay olish;

- loyihalashtirishda zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalana olish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

## **2. 60112400– Professional ta'lim (60810900–Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo'yicha)) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

### **2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilish, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish.

### **2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- dala ekinlarini yetishtirish sohasidagi kasbiy bilimlarini amalda qo'llash;
- dala ekinlarini yetishtirish sohasidagi bilimlarni egallash;
- bilimlari va mahoratlaridan sifatni ta'minlash va boshqarishda foydalanish;
- dala ekinlarini yetishtirish sohasidagi faoliyati natijalarini to'g'ri baholay olish;
- dala ekinlarini yetishtirish uchun eng yuqori va sifatli mahsulot beradigan o'simlik turlarini, navlarini tanlay olish;
- tuproq-iqlim sharoiti va dala ekinlarining biologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ekinlarni to'g'ri joylashtirish;
- dala ekinlarini yetishtirishda almashlab ekishni ilmiy asosda olib borish;
- dala ekinlarini yetishtirishning samarali usullarini tanlash va tashkil etish;
- mo'l va sifatli mahsulot beradigan ekinlarni yetishtirish hamda hosilini yig'ishtirishning texnologik xaritasini tuzish;
- dala ekinlarini ko'paytirish va yetishtirishda resurstejamkor innovatsion texnologiyalarni qo'llash;
- tuproqning suv, havo, issiqlik va oziq rejimlarini boshqarish;
- dala ekinlarining urug'ini va ko'chatlarini yetishtirish;
- dala ekinlarini yetishtirishda kasallik va zararkunandalarni aniqlash, ularga qarshi kurashish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va qo'llash;
- dala ekinlarini yetishtirish va mahsulotga dastlabki ishlov berish;
- dala ekinlarini yetishtirish uchun talab etiladigan ishchi kuchi, texnika vositalari, o'g'itlar, urug'lar, ekiladigan materiallar, qadoqlash idishlari va boshqa materiallarni hisoblay bilish;
- ishlab chiqarish jarayonlari va agrotexnik tadbirlarni bajarilishining sifatini nazorat qilish;
- dala ekinlarini yetishtirishda texnika va texnologiyalarni tatbiq qilishda namunaviy metodikalardan va texnik vositalardan foydalanish;
- ishlab chiqarishda dala ekinlarini yetishtirish texnologiyalari va texnik vositalardan foydalanishning samaradorligini hisoblash va baholash;
- dala ekinlarini yetishtirish bo'yicha ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarni rejalashtirish;
- dala ekinlarini zamonaviy yetishtirish texnologiyalarini va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, uni bajarish, nazorat qilish va amalga

oshirilgan ishlarning natijalarini tahlil qilish va baholash;

- dala ekinlarining tavsiya etilayotgan yangi turlari, navlari va ularni yetishtirishning agrotexnik usullarini ishlab chiqarishga keng tatbiq etish;

- dala ekinlarini yetishtirish uchun agrotexnologiyalarni takomillashtirish bo'yicha innovatsion ishlanmalar, ma'lumotlarni izlab topish va ularni ishlab chiqarishda qo'llash;

- mehnat jamoasini boshqarishda mehnatni ilmiy asosda tashkil etish va zamonaviy boshqaruv usullarini qo'llash;

- dala ekinlarini yetishtirishda yer, suv, texnika va mehnat resurslaridan samarali foydalanish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish, hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash, jarohatlanish va kasbiy kasalliklarni oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni bilish;

- ish sifati uchun mas'uliyatni his qilish, o'z bilimlari va mahoratlaridan sifatni boshqarish bo'yicha foydalana olish;

- innovatsion g'oyalardan foydalanishga tayyor bo'lish.

- pedagogik faoliyatni samarali olib borish;

- sohaga oid muammolarni yechimini topish;

- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

- fikrlar xar xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

- birlamchi ishlab chiqarish zveno ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, bajarish va nazorat qilish hamda ish natijalarini baholash.

### **2.3. Umumiy va kasbiy kompetentsiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga quyidagi talablar.**

Talabalar umumiy va kasbiy kompetentsiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketmaketligida kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetentsiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlar – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetentsiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetentsiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

#### **2.3.1. Kvalifikatsiya: agronom, agrotexnolog, pedagog**

#### **2.3.2. 60112400–Professional ta'lim (60810900–Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo'yicha)) ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:**

<b>O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari</b>	<b>Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat</b>	<b>Ajratilgan kredit</b>
Majburiy fanlar	5640	188
Tanlov fanlar	780	26
Malakaviy amaliyotlar	660	22
Yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4



2.3.3. 60112400–Professional ta’lim (60810900–Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo’yicha)) bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha ta’lim dasturining tuzilishi:

T.r	Fanning malakaviy kodi	O’quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>5640</b>	<b>188</b>	
1.01	O’EYTB1104	O’zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	DINB1204	Dinshunoslik	120	4	2
1.03	FALB1504	Falsafa	120	4	5
1.04	XJTNB1204	Xorijiy til	120	4	2
1.05	O’T O’SQB1204	O’zbek (rus) tili: O’zbek tilini sohada qo’llash	120	4	2
1.06	JMSB1102	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	1
1.07	OMTB1204	Oliy matematika	120	4	2
1.08	ANFKBKB1104	Analitik, fizkolooid va biokimyo	120	4	1
1.09	BO’FZB1108	Botanika va o’simliklar fiziologiyasi	240	8	1,2
1.10	QXAKTB1204	Qishloq xo’jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalar	120	4	2
1.11	QXMB1106	Qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalashtirish	180	6	1
1.12	MTKB1104	Mutaxassislikka kirish	120	4	1
1.13	KPSXB1108	Kasbiy psixologiya	240	8	1,2
1.14	KPDGB1308	Kasbiy pedagogika	240	8	3,4
1.15	TIMB1504	Tarbiyaviy ish metodikasi	120	4	5
1.16	TTEXB1604	Ta’lim texnologiyalari	120	4	6
1.17	KTMDB1708	Kasbiy ta’lim metodikasi	240	8	7,8
1.18	TPAKB1308	Tuproqshunoslik va agrokimyo	240	8	3,4
1.19	DEHB1310	Dehqonchilik	300	10	3,4
1.20	MELYTB1308	Melioratsiya va yer tuzish	240	8	3,4
1.21	MEVSABB1308	Mevachilik va sabzavotchilik	240	8	3,4
1.22	QXBTMB1306	Qishloq xo’jalik biotexnologiyasi va mikrobiologiya	180	6	3
1.23	QXEGSUB1506	Qishloq xo’jalik ekinlari geneti-kasi, seleksiyasi va urug’chiligi	180	6	5
1.24	O’HQB1508	O’simliklarni himoya qilish	240	8	5,6
1.25	PAXTEB1606	Paxtachilik	180	6	6
1.26	YEXYEOTB1508	Yem-xashak yetishtirish va ozuqa tayyorlash	240	8	5,6
1.27	ESSTB1508	Ekinlarni sug’orish va sug’orish tizimlari	240	8	5,6
1.28	O’S HB1712	O’simlikshunoslik	360	12	7,8
1.29	DEYNTB1706	Dala ekinlarini yetishtirishda noan’anaviy texnologiyalar	180	6	7
1.30	QXMSSB1804	Qishloq xo’jalik mahsulotlarini standartlashtirish va sertifikatlash	120	4	8

1.31	QXMSQITB1804	Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi	120	4	8
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>780</b>	<b>26</b>	
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	<b>780</b>	<b>26</b>	3,4,5,7,8
		<b>Jami</b>	<b>6420</b>	<b>214</b>	
	MALAMM 1422	Malakaviy amaliyotlar	660	22	2,4,6,7
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4	8
		<b>Jami</b>	<b>780</b>	<b>26</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	



## Bibliografik ma'lumotlar

UO'K: 63+631

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

Professional ta'lim tizimi, o'quv jarayonlarini tashkil etish, fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy hujjatlar, zamonaviy ta'lim va pedagogik texnologiyalar, mustaqil ta'lim, agronomiya, agrotexnik tadbirlar, ekinlarni yetishtirish, o'simlik, tuproq-iqlim sharoiti, dala ekinlarining biologik xususiyatlari, almashlab ekish, texnologik xarita, tuproqning suv, havo, issiqlik va oziq rejimlari, o'g'itlar, urug'lar, ekiladigan materiallar, qadoqlash idishlari, yer, suv, texnika va mehnat resurslari, innovatsion g'oyalar, kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, o'quv rejasi va fan dasturi, o'quv jarayoni, tashkiliy boshqaruv, loyiha-texnologik, pedagogik, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ish, baholash, sifat nazorati, mustaqil ta'lim, o'quv fanlari bloki, mundarija, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy-tadqiqot jarayonlari.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti



Birinchi prorektori S.Ya. Islamov

2023 yil « 10 » 07

KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor Sh.Yakubov

2023 yil « 21 » 08

M.O'.

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Rektor K.Komilov

2023 yil « 18 » 07

M.O'.

O'simliklar genetik resurslari ilmiy tadqiqot instituti

Direktori S.Aliqulov

2023 yil « 17 » 07

M.O'.

Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Direktori E.Ravshanov

2023 yil « 17 » 07

M.O'.

Toshkent viloyati Buka tumani "ARK BUKA" MChJ

Direktori A.Dushaboyev

2023 yil « 20 » 07

M.O'.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Rektor A.Qirg'izboyev

2023 yil « 20 » 07

M.O'.

**Toshkent davlat agrar universiteti**  
**60112400– Professional ta’lim (60810900-Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo’yicha)) bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha malaka talablari va o’quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta’lim muassasalari va asosiy kadrlar iste’molchilari o’rtasida**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

Toshkent vil.

“ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorektori, professor S.Ya.Islamov, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti rektori, professor A.Qirg’izboyev, O’simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti direktori, professor S.Aliqulov birgalikda TDAUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta’lim yo’nalishining malaka talablari va o’quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60112400– Professional ta’lim (60810900-Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo’yicha)) bakalavriat ta’lim yo’nalishi.

Malaka talablari hamda o’quv rejani ishlab chiqilishida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi 5847-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-3775-son, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 15 iyundagi “Davlat oliy ta’lim muassasalariga o’qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to’g’risida”gi PQ-279-son Qarorlariga hamda oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o’quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste’molchilari tomonidan qo’yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta’lim yo’nalishi bo’yicha malaka talablari o’quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo’lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o’quv rejani o’rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat  
pedagogika universiteti rektori**



*A.Qirg’izboyev*

**A.Qirg’izboyev**

**O’simliklar genetik resurslari  
ilmiy-tadqiqot instituti direktori**



*S.Aliqulov*

**S.Aliqulov**

**Toshkent davlat agrar universiteti  
birinchi prorektori**



**S.Islamov**